

12 iyul - Butunjahon fuqaro aviatsiyasi bortkuzatuvchisi kuni!

2021 12 July

Bugun eng romantik kasb egalari – parvoz xodimlari o'zlarining professional bayramlarini nishonlamoqdalar.

Bugungi kunda “Uzbekistan Airways” Ajda har kuni – kechayu-kunduz yo‘lovchilarga xizmat ko‘rsatadigan, qulay va xavfsiz parvozni ta‘minlaydigan 900ga yaqin bortkuzatuvchilari faoliyat yuritadi.

Hurmatli Uzbekistan Airways bortkuzatuvchilari, sizlarni kasb bayramingiz bilan tabriklaymiz! Siz va hamkasblaringizga qiyin ammo juda mas‘uliyatli faoliyatingizda eng samimiy tilaklarni tilaymiz.

Osmoningiz musaffo, parvozingiz muvaffaqiyatli bo‘lsin. Sizni yerda har doim aziz insonlar kutishsin, samolyot bortida favqulodda vaziyatlar ro‘y bermasin va har bir parvoz muvaffaqiyatli bo‘lsin!

Bizning yo‘lovchilarimiz uchun samolyot bortida tez-tez salomlashish so‘zlari yangrasin: Xonimlar va janoblar, kema qo‘mondoni parvozga tayyorgarlik haqida xabar berdi. Bizning ekipajimiz sizga yoqimli parvoz tilaydi!

«Uzbekistan Airways» AJ Axborot xizmati.